

XX ASR HINDIY ADABIYOTDA MODERNIZMINING KIRIB KELISHI HAMDA SHAKLLANISHI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti*

Tilovmurodova Shamsiqamar

Ilmiy rahbar: prof., f.f.d., dots. Xodjayeva T.A

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida g'arb adabiyotida modernizmning mustaqil adabiy-estetik yo'nalish sifatida shakllanish davri Hindistonda murakkab tarixiy bosqich, milliy ongning o'sishi, yuksalish davriga to'g'ri keldi. Britaniya mustamlakachiligiga qarshi kurashda va mamlakatning o'z yo'lini qizg'in izlashdagi adabiy muhitdagi Taraqqiyparvar yozuvchilarning o'rinda ekanligi va modernistik adabiyot o'rtasidada yangi bir burilish och-di. Taraqqiyparvar adabiyotning ta'siri norealistik adabiyotni adabiy ja-rayonga kirib kelishiga qarshilik ko'rsata boshladi. Ijtimoiy keskinlik va mamlakatdagi tarixiy vaziyat, hind kitobxonlarining modernizm g'oyalari va estetikasini idrok etishga tayyor emasligi hamda uzoq vaqt davomida be-gona, hayotdan uzilgan va hind yozuvchilari orasida izdoshlarini ham, kitobxonlar orasida ham muxlislarni topish ancha qiyin kechgan bo'lsada, asta-sekin o'z tarfdorlarini yig'a boshladi. Bu muhit Hindiston xalqlari adabiyotida yo'nalishlar va oqimlarning qarama-qarshiligiga sabab bo'ldi. Demak, birinchi bobda tahlil ostiga olingan bu kuzatuvlardan quyidagi naz-ariy to'xtamlarga kelindi.

XX asr Hindiston xalqlari adabiyoti rivojlanishining umumiy yo'nalishga ega bo'lmaganini kuzatadigan bo'lsak, unda turli tarixiy davrda shakllangan adabiyotlarning mamlakat va uning muammolariga e'tibor qay-si tarafdin bo'lmasin qaratilayotganini sezish mumkin. Jamiyatdagi o'sha davrning dolzarb muammolarini adabiyotda ifoda etishga harakatlar natijali bo'ldi. XIX asrdan rivojlanib kelayotgan Taraqqiyparvar adabiyot ma'rifatparvarlik mafkuralarini targ'ib qilishda davom etaverdi. Rabindranath Thakur, Sajjod Zohir, Ramvilas Sharma, Amritray, Shrivdansiya Chauxan kabi yozuvchilarning hikoyalarda mamlakatdagi dolzarb muammolarga murojaat qildilar. Mamlakatdagi muhitning o'zgarishi (mamlakat parchalanishi) bu adabiyot ixlosmandlarini ham chetlab o'tmadi va adabiy sahnaga yangi qoimlar kirib kela boshladi.

XX asr Hindiston xalqlari adabiyotida ko'pincha tarmoqlangan an'analar doirasida rivojlanib kelgan, qolaversa, o'zining lisoniy tarkibi ji-hatidan nihoyatda xilma-xil bo'lgan hindiy adabiyoti adabiy asarning mazmun-mohiyatiga ham, rasmiy qismlariga ham ta'sir ko'rsatuvchi mu-rakkab islohot va shakllanish davrini boshidan kechira boshladi. Aynan shu bosqichda adabiyotning rivojlanish ko'lami

ko‘p jihatdan o‘zgardi, an‘analardan ma‘lum darajada chekinish, g‘arb adabiy merosiga murojaat qilish, shuningdek, dolzarb syujetlar va mavzular, janr tizimini shakllantirish va ijodkorlik doirasini aniqlash boshlandi. Norealistik oqimlarning hindiy adabiyotiga kirib kelishi anchagina ilgari ketgan mamlakatlar adabiyotini hamda tajribasini o‘rganish bilan sodir bo‘ldi. 50-yillardan boshlab, adabiy jarayonda eksperimentalistlar, ekzistensializm vakillari zamonaviy G‘arb madaniy voqeliklari bilan faol tanishganliklari sababli, norealistik adabiy oqimlari “Yangi hikoya”, “Yangi roman” va “Yangi she‘riyat” ostida yozu-vchilar ijod qila boshlashdi. Zamonaviy hind adabiyotlaridagi xilma-xil oqimlarning ichida prayogvad (eksperimentalizm) asosiy o‘rinni egallay boshladi. Bu oqimning asl mohiyatini aniqlash uzoq vaqt davomida hind tanqidchiligida keskin nizolarga sabab bo‘ldi.

Hind adabiyotiga modernizmning kelib chiqishida ijtimoiy-psixologik faktoring dominantligiga urg‘u beriladi. Chindanam, XX asr o‘rtalarida insonning yashash tarzi texnika rivojlanishi natijasida misli ko‘rilmagan dara-jada o‘zgardi, murakkablashdi, odamlarning o‘zaro ruhiy ma‘naviy mu-loqotda bo‘lishiga putur yetdi. Bunday ehtiyoj - ruhiy muloqot ehtiyoji in-sonning begonalashuviga olib keldi. Tashqaridan kutilgan baxt, najot ikkita Jahon urushi oqibatida sarobga aylandi. Natijada inson o‘z ehtiyojlari bilan yolg‘iz qoldi. Modernizmning ruhiy-psixologik asosi shu nuqtadan bosh-lanadi. Hindiy modernizm shunday mohiyatga ega ediki, u eng an‘anaviy, eng mumtoz shakllar, tushunchalar bag‘riga ham hech tortinmay, ikki-lanmay yorib kirdi. Ularni inkor etib, o‘zining yangi qadriyatlarini ilgari surdi.

Shuni ta‘kidlash joizki, Hindiston xalqlari adabiyotida mavjud va zamonaviy adabiy oqimlarning rivojlanishi va shakllanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ldi. Mamlakatning parchalanishi, millatlarning tarixiy taqdiri, mentaliteti va adabiy an‘analar bilan uzviylikda qalam tebratish aso-sida kechdi. Hindiy modern adabiyotining rivojlangani, yangi oqimlarning kirib kelishi va moslashishi, turli uslublarning shakllanishi ilmiy asoslangan holda o‘rganildi. “Yangi nasrchilik” kabi hodisaning hindiy an‘anaviy nasrchiligi bilan, shuningdek, G‘arb adabiyotidagi modernistik tendentsiyalar bilan bog‘liqligini kuzatildi. XX asr ikkinchi yarmi hind modern adabiyotining rivojlanish bos-qichlari o‘rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmuhamedov M.K. Adabiyot nazariyasi.1-tom. - T.: Fan, 1978.-272b.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - T.: O'qituvch, 1980.-392b.
3. Xodjayeva T.A. Hindiston xalqlari adabiyoti - T.: ToshDSHI, 2010.-204b.
4. Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. - T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020.-552b.
5. Ulug'bek H. Jahon adabiyoti: modernism va postmodernism. -T.: Akadernashr, 2020.-288b.
6. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -T.: O'zbekiston, 1997. - 415b.
7. Цветкова С.О. Очерки истории литератур Индии: X-XX вв.-СПб.: Санкт-Петербургский Государственный Университет, 2014. -320с.
8. Сенкевич А. Н. Общество. Культура. Поэзия (Поэзия хинди периода независимости). -М.: Наука, 1989. -227с.
9. Рабинович И.С. Сорок веков индийской литературы. -М.: Наука, 1969. -339с.
10. Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. -М.: Высшая школа, 1969. -303с.
11. Чаухан Ш. Очерк истории литературы хинди. -М.: Издательство иностранной литературы, 1960. -321с.
12. Чельшев Е.П. Индийская литература вчера и сегодня. -М.: Художественная литература, 1989. -352с.
13. Чельшев Е.П. Литература хинди. -М.: Наука, 1986. -329с.
14. Чельшев Е.П. Современная индийская литература. -М.: Художественная литература, 1965. -382с.
15. Чельшев Е. П. Избранные труды. В 3 т. Т. 1. Исследования новой и современной индийской литературы. -М.: Наука, 2001. -788с.
16. Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. O'zbek tilining izohli lug'ati. -T.: O'zbekiston nashriyoti, 2021. -672b.
17. Бескровный В.М. Хинди-русский словарь. -М.: Наука, 1959. -907с.
18. हरदेव ब. राजपाल हिंदी शब्दकोश. - द.: राजपाल एन्ड सन्ज़, 2019. -980 प.
19. द्विवेदी ह.प.हिन्दी साहित्य की भूमिका. -द.: राजकमल प्रकाशन, 2017.-245